

## **Ma'ruza 3.**


**Mavzu: DON TOZALASH MASHINALARI VA USULLARI.**

### **REJA:**


- 1. Donlarning qisqacha tavsifi va ularni tozalash usullari.**
- 2. Don tozalashni amalga oshiruvchi mashina va qurilmalar.**

Donni tozalash, saralash va kalibrovkalash ajratuvchi (separatsiyalovchi) ishchi organlarga ega don tozalash mashinalarida amalga oshiriladi. Bu ishchi organlarning ishlash tarzi esa donli aralashma zarralarining ayrim fizik-mexanik xossalari farqiga asoslangandir. Ushbu xossalarga ularning kattaligi (o'lchami), aerodinamik xossalari, yuzasining holati, shakli, zichligi, qayishqoqligi, mexanik qattiqligi, rangi, elektrofizik xossasi va boshqalar kiradi.

# SM-4 don tozalash mashinasi




## Donni qo'shilmalardan havo oqimi yordamida ajratish



**Aerodinamik xossasi bo'yicha ajratish.** Bu usul donli aralashma zarralarining havo oqimi ta'sirida har xil harakatlanishiga asoslangan. Donli aralashma zarralarining ushbu xossasi donni havo oqimida tozalash va saralash uchun asos qilib olingan.

Donlarni o'lchami va aerodinamik xossasiga qarab ajratish ularni tozalash va saralashning eng ko'p tarqalgan usuli hisoblanadi.

# “Petkus-vibrant” K-521 don tozalash mashinasi




Respublikamizga ilgari chetdan olib kelingan mashinalardan tashqari Germaniyada ishlab chiqarilgan mashinalar ham olib kelingan. Ana shunday mashinalar sirasiga “Petkus-vibrant” K-521 va “Petkus-Gigant” K-531 statsionar don tozalash mashinalari kiradi.

“Petkus-vibrant” K-521 mashinasi donli aralashmani dastlabki tozalashga mo‘ljallangan.

Mashina yuklash bunkeri 1, ta‘minlagich jo‘va 2, ventilyatorli tozalash tizimi 3, ajratkich kanallar 4 va 9, g‘alvirli stan 5, tebrantirgich 6, elektrodvigatel 8 va siklon 10 dan tashkil topgan

# “Petkus-Gigant” K-531 don tozalash mashinasi



“Petkus-Gigant” K-531 mashinasi respublikamiz sharoitida sinab ko‘rilganda ish sifat ko‘rsatkichlari belgilangan talablar darajasida bo‘ldi. Ammo ushbu mashina konstruksiyasida ham boshqa mashinalar singari chala yanchilgan boshoq yoki sitilmagan qobiqli donlarga ishlov berilmasligi oqibatida ular tarkibidagi donlar chiqitga chiqib ketib nobud bo‘lish holati kuzatiladi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda va xorijda so‘ruvchi ventilyator va tekis g‘alvirlarni mujassamlashtirgan don tozalash mashinalaridan keng foydalaniladi. Tozalanadigan donning turi va ko‘rinishiga qarab bu mashinalarni rostlash qulay, ya’ni g‘alvirlar ko‘zlari o‘lchami va shakli bo‘yicha kerakligiga almashtiriladi, havo oqimining tezligi esa zaslonka va ventilyator aylanishlar sonini o‘zgartirish bilan rostlanadi.

Ammo yuqorida keltirilgan barcha don tozalash mashinalarining texnologik jarayonini tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda donlardan har qanday begona qo‘shilmalar va chala yanchilgan boshoq qismlari yoki qobiqli donlar ajratib olinsada, ularga ishlov berib doni ajratib olinmaydi. Natijada ichida bo‘liq donlari bo‘la turib chala yanchilgan boshoq qismlari chiqitga chiqib ketadi.

# “T – sxema” jadvalini to’ldiring

Don tozalashning salbiy va ijobiy tomonlarini ko’rsating

**IJOBIY**

**SALBIY**



# Nazorat savollar

1. Donni tozalash deb nimaga aytiladi?.
2. Saralash deganda nimani tuchinasiz?.
3. Kalibrovkalash deganda nimani tuchinasiz?
4. Aerodinamik xossasi bo'yicha ajratish deganda nimani tuchinasiz?
5. Trening vazifasi nimadan iborat?.

**E'tiborlaringiz uchun raxmat**